

**Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим
вазирлиги**

Бухоро давлат университети

Филология факультети

Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси

ЭЛ ДУРЛАРИН ҚАДРЛАГАН ОЛИМА

Республикамизда танилган фольклоршунос олима,
филология фанлари доктори, профессор Дармонай
Ўраеванинг 55 йиллигига бағишиланади

Обиджон Хамидов. Заковатли олима ва маҳоратли педагог	3
С. Қ. Қаҳҳоров. Ҳурмат ва эъзозга лойиқ муаллима.....	5
О.С.Қаҳҳоров. Фидоий устозга эҳтиром	7

УСТОЗЛАР ЭҲТИРОФИ..... 9

О.Сафаров. Садоқат – шогирд камолининг сарчашмаси.....	9
Маматқул Жўраев. Дармоной Ўраеванинг илмий ижоди ва унинг ўзбек фольклоршунослиги тараққиётида тутган ўрни.....	15
Salima Mirzayeva, Zilola Eshanova. Ilmni e'zozlagan ayol	25
Тўлаганова Захира, Тўлаганова Дилфузা ва Абдуқобил Тўлагановлар оиласи. Табаррук ёшингиз билан	28
Жума Ҳамроҳ, Акмал Шерназаров. Севимли халқининг ижодини тадқиқ этган олима.....	29
Нафас Шодмонов. Замонамиз орифаси	34
Шавкат Ҳасанов. Саодатга элтувчи йўл	39
С.С.Саидов, Д.Ҳ.Каримова. Эҳтиромга лойиқ истеъдод	40

ҲАМКАСБЛАР ВА ДЎСТЛАР ЭҲТИРОМИ 43

Дилрабо Қувватова. Илм ва одамийлик нурига йўғрилган умр	43
Шоҳида Шаҳобиддинова. Дўстим Дармон.....	58
Д.З. Ражабов. Барчиной опам (ҳаётий эртак)	58
Ҳилола Сафарова. Устоз назари тушган шогирд.....	60
Islomjon Yoqubov. Qurb va imkon kengliklari	63
Сариев Санъатжон Матчонбоевич. Фольклоршунослик дарғаларига муносиб издош	68
Abuzalova Mehriniso Kadirovna. O'zbek folklorshunosligining fidoyi qizi	70
Ғайрат Муродов. Илм саодати	72
Hayitov Shavkat Ahmadovich. "Osuda andin yoru ag`yor ..."	75
Nazarova Saida Axmedjanovna. Men tanigan Darmonoy O'rayeva	81
А.А.Ҳайдаров. Илмга бахшида умр	82

Эл дурларин қадрлаган олима
“OSUDA ANDIN YORU AG`YOR ...”

Hayitov Shavkat Ahmadovich

**BuxDU o`zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari doktori**

Buyuk qadimshunos, qomusiy olim Mahmud Koshg'ariy
“Devon”idan o'qiyimiz:

Kelsa kishi etma angar o'rtar kula,

Baqqil angar ezgulugun ag'zin kula [2, 149]

Turkiy she'riyatning ushbu qadimiylar namunasida inson xulq-atvorining yuzdag'i aksi asos qilib olinib, xushmuomalalik, yoqimlilik targ'ib qilinadi. Alisher Navoiy pandnomasining “Kulagach yuzluk xush axloqkim...” deb boshlanuvchi 65-tanbihi to'liq ochiq chehrali kishining ta'rifu tavsifiga bag'ishlangan. Ulug' adib ochiq chehrali kishi yuzini toza gulga tashbih qiladi. “Devonu lug'otit turk”dan ko'chirilgan baytda asosiy e'tibor ikki kishi orasidagi munosabatga qaratilgan va g'azabkorlik, jahldorlik qoralanib, inson boshqalarni o'ziga tortadigan darajada xushxulq, ochiq yuzli, yoqimtoy bo'lishga da'vat etilgan. Alisher Navoiy tanbihida esa inson ruhiy olamining yuzdag'i aksi tasvir asosida turgani holda, ijodkorning fikru zikri tashqi qiyofaning xalq ma'naviy hayotiga ta'siri, jamiyatga yetkaziladigan foyda-zarariga yo'naltirilgan. Axloqiy mavzuning tasvir, talqin va ta'sir doirasi benihoya kengaygan: “Ochuq yuzidin xaloyiqqa nishot va chuchuk so'zidan ulusqa inbisot. Mardumliq bila ko'ngullarga mahbub va insoniyat bila jonlarg'a matlub. Osuda andin yoru ag'yorki, mundoq kishi bo'lsun umridin barxurdor” [1,101]. Hazrat Alisher Navoiy talqinlaricha, “nifoq kuduratidan” mutlaqo xoli bo'lgan bunday insondan odamlar bexavotir yashaydilar. U do'stga ham, dushmanha ham zahar sochmaydi. Yo'lida, ko'lida bunday toifadagi kishilar bilan odamlar tasodifan uchrashib qolganlarida undan seskanmaydilar, hozir meni “chaqib oladi”, degan hadik ko'ngillaridan kechmaydi. Yoki biror anjumanda, majlisda, yig'inda o'tirganlarida: “hozir shu bir yoqimsiz gap aytadi yoki bir bema'ni savol beradi”, degan xavotir ularni bezovta qilmaydi.

Nazarimda, filologiya fanlari doktori, professor Darmonoy O'rayeva yuqorida ikki nufuzli manbada talqin qilingan kamyob insonlar toifasiga mansub.

Darmonoy shirin takallum bilan odamlarning ko'ngliga yo'l topadi. Bu dilbar singlimiz odamlarga pokiza nazar bilan qaraydi. O'zgalardan ayb izlamaydi. Kishilarning yaxshi tomonlarini ko'radi. Boshqalarning ko'ngilga jarohat yetkazuvchi qo'pol muomalalari, achchiq so'zlariga shikoyatsiz bardosh beradi. O'zgaga ozor berguncha, o'z nafsi qiyaydi. O'ziga ravo ko'rmagan ezguliklarni o'zgalarga ravo ko'radi. Muhtaram o'quvchilardan uzr so'rab andak mubolag'aga, ozgina badiiy tasvirga izn beradigan bo'lsm, qon yutqizganga asal, zahar tutganga shakar peshkash qiladi. Nega? Bu savolga yana ulug' Navoiy ma'naviy me'rosidan javob topamiz: "Chuchuk tilki, achchig'liqqa evruldi, zarari om bo'ldi, qandniki, muskir boda qildilar, harom bo'ldi" [1, 94]. Masala ravshan. Shirin til achchiqqa aylansa, birga emas, mingga zarar yetadi. Qandu asaldan may tayyorlansa, shirinlik murdor bo'ladi. Darmonoy folklorshunos olima, shuning uchun ham u bunday hikmatlarning mohiyatini teran anglaydi.

Achchiq so'z, hatto haqorat eshitish bilan esa mard insonning qadri tushmaydi. Zero, dur loyga qorishgani bilan qiymati kam bo'lmaydi, eshak munchoq tojga qadalgani bilan feruza o'rnini tutmaydi. Uy qancha qorong'u bo'lsa, sham unda ravshanroq nur taratadi. Hazrat Alisher Navoiy achchiq so'zni zaharli nayzaga qiyos qiladilar. Xalqimizning "Tig' yarasi tuzaladi, ammo til yarasi tuzalmaydi" hikmatini quyidagicha badiiy inkishof qiladilar: "Ko'ngulda til sinoni jarohati butmas, anga hech nima marham yerin tutmas" [1,93]. Andishali xalqimizning Darmonoy singari oqila qizlari yaxshi so'z va shirin til bilan zabon nayzasidan qalbi yaralanganlarning jarohatiga malham qo'yadilar. Muloyim so'z bilan g'azab otiga mingan, tilidan zahar tomadigan vahshiylarni do'stga aylantiradilar. Odatda, bunday toifadagi insonlar ezgulik yo'lida yetgan har qanday aziyatga mardonavor bardosh beradilar. Ta'na-ma'lomatlarni, gina-kuduratlarni butun og'irlikni o'zlariga olib bo'lsa-da, nazarga ilmaydilar. Nega? Bu savolga Hazrat Alisher Navoiyning do'stlari va maslakdoshlari, XV asr

Эл дурларин қадрлаган олима

Xuroson javonmardlarining peshvosi Pahlavon Muhammadning XIII asrning ikkinchi yarmida hamda XIV asrning birinchi choragida Xorazmda yashab o'tgan buyuk maslakdoshi Pahlavon Mahmud quyidagicha javob yozib qoldirganlar:

Oqil aqli hirsga giriftor bo'lmas,
Hasad qilgan bilan tillo xor bo'lmas,
Nomard it kabitdir, mard buyuk daryo,
Daryo it damidan hech murdor bo'lmas. [4,88].

Fusungar ilonni ohang bilan sehr-jodu o'qib inidan chiqargani, Yusuf shoir yovvoyi tog' kiyigi yang'lig' turkcha so'zlarni mashaqqat tortib o'ziga o'rgatgani kabi Darmonoy singari o'zbekning suyukli qizlari shirin so'z bilan odamlar qalbini rom qiladilar. Chunki ularning qalbiga "Turkiy Shohnoma" muallifining quyidagi so'zlari ota qoni va ona suti bilan ko'chgan bo'ladi:

Tili bo'lsa uning shakardan shirin,
Ulug' ham, kichik ham beradi bo'yin [5, 85].

Ularning tabiatiga ikkilanish, siqilish, zorlanish mutlaqo yot bo'lib, butun harakatlarida inson zotiga buyuk ishonch balqib turadi. Ana shu ishonch tufayli hazrati inson yuzlab sarkash, o'jar yuraklarni g'ayritabiyy ravishda o'ziga bo'ysundiradi. Gina-kudurat yongan qalblarni isyon zangidan tozalaydi, fisq mavj urgan dillarda mo'jizali o'zgarishlarni vujudga keltiradi.

Alisher Navoiy so'zi va ovozi yoqimsiz odamni qurbaqaga tashbih qiladilar. Ulug' mutafakkir talqinicha, saodatga eltuvchu pokizaruh manbai ham til, nahs, shumlik asosi ham til. Tilini o'z ixtiyorida saqlay bilgan odam oqil, tiliga erk bergan kishi andishasiz va tubandir. Til shirin bo'lsa yaxshi, til bilan dil bir bo'lsa, nur ustiga nурdir. Inson vujudi misoli bo'ston. Til - gul, ko'ngil - g'uncha. Gulistonda gulsafsar va g'uncha eng yoqimli gullar bo'lgani kabi inson tanasida til va dil eng mahbub a'zolardir.

Darmonoy singari munavvar dil sohibalari ana shu ikki a'zoni yovuzlik shamollaridan asrab, avaylab muttasil insoniy kamolot sari intiladilar. Ularning ko'ksi - yaxshilik xazinasi. Tilidan esa bol tomadi.

Tojik xalqining buyuk shoiri Nosir Xisrav pandnomasining "Rizo bayonida", "Ta'ma bayonida" va boshqa qator fasllaridagi

axloqiy tasavvurlar Qur'on oyatlari va hadislar zaminida shakllangan va ular ko'pgina o'rirlarda Hazrat Alisher Navoiy hikmatlari bilan hamohangdir. Bu o'rinda yuqoridagi fikrlarimizni quvvatlantirish uchun "Saodatnoma"dan birgina misol keltirish zarur ko'rindi:

Ba lutfu marhamat dilho nigah dor,
Kas az dastu zabonu xud mayozor. [3, 558].

Navoiy pandnomasidagi 109-tanbih quyidagi satrlar bilan xotima topgan: "Musulmon uldurki, musulmonlar aning tili va ilgidin emin bo'lg'aylar va ko'zi ko'nglidin mutmain" [1, 120]. Har ikkala ijodkor fikrlari uchun ham Rasulullohning "Al-muslimu man salimal muslimu min lisonihi va yadihi"/ "Musulmonning yaxshisi – uning qo'li va tilidan boshqalar ozor topmaydiganidir"/ hadisi g'oyaviy asos bo'lgan. Bunda Navoiy tanbihining o'ziga xosligi shundaki, unda payg'ambarning yana boshqa bir – "Ko'z haqdir, u tuyani qozonga eltadi, insonni qabrga" – hadisi mazmuni ham birdaniga fikr bayoniga san'atkorona singdirilib, badiiy g'oya salmog'i oshirilgan. "Ko'nglidin mutmayin" ifodasi esa turkiy xalqlar she'riyati quyoshining navbatdagi yana bir ixtirosidir. Ulug' bobomiz haq. Har bir insonning qalbi ochilmagan bir qo'rg'on. U qo'rg'onning ichida nima borligi o'sha odamning o'ziga va o'n sakkiz ming olamni yaratgan Parvardigorgagina ayon. Ulug' Navoiy aytmoqchilarki, xush axloqli inson bo'lismning shartlaridan biri bu insonning ko'nglidan ham birovga nisbatan yomonlik kechmasligi zarur. Nega? Chunki ichkaridagi kir tashqaridagi kirdan ko'ra yuz marta xavfliroq, musibatliroqdur. Yagona jumlada bir yo'la ikki hadis mazmunining uyg'unlashuvi va rangin satrlarning takrir, tanosub, tazmini muzdavaj va saj' san'ati bilan ziynatlanishi badiiy tasvir jozibasini behad yuqori darajaga ko'targan.

Yuqoridagi tahlilu talqinlardan kelib chiqadigan qat'iy xulosa shuki, filologiya fanlari doktori, professor, zamonamizning zabardast olimasi Darmonoy O'rayeva tili, ko'zi, ko'ngli pok, pashshaga ham ozor yetkazishdan hazar qiladigan mehrli, kamtarin, samimiyl insondir. Dilbar singlimizga 55 yosh muborak bo'lsin. Haq subhonahu va taolo madadkor bo'lib, 75 va 105ni nishonlash ham nasib etsin.

Эл дурларин қадрлаган олима

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 101.
2. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. 1-tom. – Toshkent: O'zbekiston FA nashriyoti, 1960. – B. 149.
3. Nosiri Xusrav. Kulliyot. Dar du child. Childi 1. – Dushanbe: Irfon, 1991. – Sah.558.
4. Pahlavon Mahmud. Ruboiyalar. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – B. 88.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: "Fan", 1971. – B. 85.

МАЬНАВИЙ САФАРНИНГ НУРЛИ БЕКАТИ

Хусниддин Эшонқулов

филология фанлари доктори

Маърифатга интилган кўнгил маънавий сафари жараёнида қаноатнинг ўзига санчилган тифи янглиғ шартлари билан унсланиб, ҳамида ахлоқ билан сифатланиб боради. Бундай ахлоқий фазилатларнинг бари бир инсон кўнглида жамулжам бўлса, Навоий ҳазратларининг таъбири билан айтганда, унга "эҳсон" номи берилади. Саховату мурувватда тенгсиз саналган эҳсон соҳиби минглаб кишиларнинг қалбига шодлик улашади. Бу эҳсон маърифат улашиш эҳсони бўлганда, унинг қадр-қиммати янада юксак бўлиб, шогирдлар қалбига кириб борган ҳар бир нури улар кўнглидаги учқунларни илм машъалига айлантириш имкониятига эга бўлади. Халқимизда саховат улашиш хусусида "Билса балиқ, билмаса Холик" мақоли бежизга айтилмаган. Бу сахийликни одат қилган ахийларнинг балиқнинг ғофил ёки огоҳ бўлишидан қатъи назар қуёш панжалари орасидан нурлар таратётганидек, борини эҳсон қилишга даъват этади. Нима бўлганда ҳам балиқнинг ғофил бўлганидан унинг огоҳ бўлгани яхши, чунки бундан эҳсон улушувчининг кўнгли яйратади. Айниқса, бу илм эҳсон қилиш борасида бўлса. Негаки, илм эҳсон этилганида, уни қабул қилувчининг илмни англаганигина улашилган нарсанинг эгасига етиб борганини билдиради. Бу борадаги ғофиллик эса эҳсонни тезда унутилганида намоён бўлади. Бироқ илм эҳсон қилингани билан камаймайди, уни улашувларнинг қалбидаги нур чехрасида намоён бўла боради. Аввало, у шундай илм эҳсонидан баҳра олиб, энди ўзи уни